

## ARBA'IN JANRMI YO AN'ANA?

**Karimova Surayyo Oybek qizi,***O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti Adabiyotshunoslik:  
O'zbek adabiyoti yo'nalishi I-bosqich magistri*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada turkiy adabiyotimiz asoschilaridan biri bo'lgan Mir Alisher Navoiyning diniy asarlari ichida o'ziga xos o'rin egallagan "Arba'in" asari yozilish tarixi, ushbu an'ananing janr sifatida fors-tojik adabiyoti ta'sirida rivojlanishi, arba'in o'zi janrmi yo an'ana ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** arba'in, chihil hadis, an'ana, janr, termin, Jomiy "Arba'in"i, Navoiy "Arba'in"i, Imom Navaviy.

**Annotation.** This article discusses the history of the writing of the work "Arba'in" by Alisher Navoiy, one of the founders of Turkic literature, which holds a special place among his religious works. It also examines the development of this tradition as a literary genre under the influence of Persian-Tajik literature and analyzes whether arba'in itself is a genre or a tradition.

**Keywords:** arba'in, forty hadiths, tradition, genre, term, Abdurahmon Jomiy's Arba'in, Alisher Navoiy's Arba'in, Imam Nawawi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается история создания произведения «Арбаин» Аlisher Navoiy, одного из основоположников тюркской литературы, занимающего особое место среди его религиозных произведений. Также освещается развитие данной традиции как литературного жанра под влиянием персидско-таджикской литературы и анализируется вопрос о том, является ли арбаин жанром или традицией.

**Ключевые слова:** арбаин, сорок хадисов, традиция, жанр, термин, «Арбаин» Abdurahmon Jomiy, «Арбаин» Alisher Navoiy, Imam Nawawi.

**Kirish.** Mumtoz adabiyotimiz o'zining boy asarlari bilan bugungi kun uchun qimmatli bo'lsa o'zining javobsiz savollari bilan qiziqarlidir. Ko'plab izlanuvchilar uchun qiziq bo'lgan savollardan biri bu arba'in janrmi yo an'ana? U qachon va qanday adabiyotimizga kirib keldi?

**Adabiyotlar sharhi.** Arba'in so'zining lug'aviy ma'nosi adabiyotshunoslik lug'atida Navoiy asari nomi sifatida qo'llanilib kelinadi. Lekin arba'in terminining ma'nosini rus olimi I.D.Yagello "Полный персидско-арабско-русский словарь" kitobida "сорокъ" (qirq) ma'nosini bildirishini aytib o'tadi.

X.K.Baranovning "Арабско-русский словарь" kitobida ham "qirq, qirqinchi" deb bergan.

"Muin ensiklopediya" sida "Chihil" — "چهل" so'zi — "taqvodorlik, tarkidunyo qilish, uzlatga chekinish" ma'nolarini ifodalovchi deb belgilanadi. [IM.Pulatova monografiyasi.15-bet]

Shunga ko'ra "arba'in" yo "chihil hadis" asar deb qirq hadisni sharhiga bag'ishlab yozilgan asarlarga aytiladi.

"Arba'in" (Qirq hadis) - hadislarning she'riy tarjimasini bo'lib, an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi. Asar muqaddimasi— "Sababi ta'lifi Manzuma"da Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiy sahih hadislaridan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda "Arba'in"

yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruhsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganini yozadi. [2.D.Yusupova maqolasi]

Lekin Jomiy birinchi bor arba'in yozgan ijodkor emas edi. Arba'in tarixi X-XII asrlarga borib taqaladi. Islom dini arkonlarini keng targ'ib etish maqsadida XII asrga kelib musulmon Sharq xalqlari mumtoz adabiyotida "Arba'in" — "Chihil hadis" asar yozish, ya'ni 40 ta hadisni bir yerga jamlab uning ma'nosini avom xalqqa tushuntirib berish, unga sharh yozish an'anaga aylanib bordi.

Ushbu an'anaga sabab sifatida ko'plab olimlar Nabiy Sollallohu alayhi vasallamning bir hadislarini asos va turtki bo'lgan deydilar.

Rosululloh sallallohu alayhi vasallam shunday dedilar: " Kim ummatimga din ishlari borasida 40 ta hadisni muhofaza qilib bersa Alloh uni qiyomat kuni faqih qilib tiriltiradi hamda qiyomat kuni men unga shafatchi va guvoh bo'laman".

Bu hadis bir oz zaifroq yo'llar bilan naql qilingan bo'lsa-da u juda ko'p muhaddislar tomonidan rivoyat qilingan mashhur hadis hisoblanadi.

Jumladan, uni Imom Bayhaqiy, Abu Dardo va Abu Hurayra roziyallohu anxumodan, Daylamiy ibn Mas'ud va ibn Abbos raziyallohu anxumodan, Abu Nu'aym ibn Mas'ud raziyallohu anxu, Ibn Javziy esa Aliy roziyallohu anxumodan rivoyat qilganlar.[3.Navoiydan chu topqaylar navoe asari 58-bet.]

Aynan mana shu hadis asosida "arba'in" yozish an'anasi yuzaga kelgan. Shu bilan birga, arab mumtoz adabiyotida tugallangan, o'z shakli mazmuni, ifoda uslubiga ega bo'lgan janr sifatida arba'in shakllanib ulgurmagan. Mazkur holatning o'ziga xos obyektiv sabablari mavjud. Avvalo, arablarda arba'in janri asosida Qur'on oyatlari va payg'ambar (s.a.v.) hadislarini tushuntirishga ehtiyoj mavjud bo'lmagan, chunki ular Qur'on tili va payg'ambar (s.a.v.) hadislarining tili arab tilida bo'lgani bois, bevosita tushunganlar. Ajam xalqlari an'anasida esa islom dini targ'iboti uchun avom xalqqa din mohiyatini muqaddas manbalar asosida anglatish ehtiyoji har vaqt mavjud bo'lgan. Shunga ko'ra, arba'in istilohi arab voqeligida va islom amaliyoti tarixida bir mazmunni anglatga, ajam xalqlari badiiy adabiyotida u boshqa mazmunni anglatib, alohida mustaqil adabiy-estetik janr darajasiga ko'tarila olgan.[1M. Pulatova monografiyasi 25-bet]

Ilk "Arba'in" yozgan ijodkor bu Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharofiddin Imom Navaviy hisoblanadi. U ilk islom ulamolaridan biri bo'lib birinchi arba'in yozib shuhrat qozongan ijodkor. U axloqiy, falsafiy mazmundagi 41 ta ishonchli hadisni sharhlab beradi. Undan so'ng arba'in yozish arab adabiyotida an'anaga aylanadi.

Arba'in aynan adabiy janr sifatida fors-tojik va turkiy adabiyotlar asosida shakllanadi. Adabiyotshunos olim Kozim Mudirshonachiy o'zining "Jomiy Arba'ini" kitobida fors-tojik adabiyoti tarixida XII asrga kelib 40 dan ziyod arba'inlar yozilganligini ta'kidlaydi. O'zbek mumtoz adabiyotida Mir Alisher Navoiyning "Chihil hadis", "40 hadis" asari mashhur. Ushbu asar Navoiyning ustoz Jomiyning "Arba'in" asarining tarjimasi hisoblanadi.

**Muhokama.** Lekin tadqiqotchilar Hasanxon va Husaynixon Abdumajidovlar "Alisher Navoiyning "Arba'in"ini Abdurahmon Jomiy "Arba'in"ining aynan nazm tarjimasi deyish unchalik to'g'ri emas, chunki muallif unda ustozining asarida keltirgan hadislarini tanlagan bo'lsa-da, hadislarini turkiy tilga erkin tarjima qilgan, hadisni o'zi tushungan ma'nolar bilan yoritgan, forsiy baytlar mazmuniga suyanib qolmagan",- deya ta'kidlaydi.[3.Navoiydan chu topqaylar navoe asari.60-bet]

"Arba'in" asarlari an'ana sifatida arab xalqlari orasida rivojlandi. Arab xalqlari mifologiyasi va og'zaki ijodining bir qismiga aylandi.

Turkiy va fors-tojik adabiyotida esa bu badiiy adabiy janr sifatida shakllandi. Turli nazariy tadqiqotlar natijasida uning janr xususiyatlari belgilanib chiqildi, xususan:

- muqaddas manbalarga tayanish;
- diniy - teologik ma'naviyat va ma'rifatga asoslanish;
- an'anaviylik;
- asar g'oyasi;
- kompozitsion qurilishi;
- til va uslub masalalari;

kabi xususiyatlarni belgilaydi olim O.I.Fedotov.[1.M.Pulatova monografiyasi.35-bet]

Muqaddas manbalarga tayanish — mazkur xususiyat arba'inning janr sifatida bevosita islom dinining muqaddas manbalari ya'ni Qur'on va hadis bilan bog'liqligidan kelib chiqadi. Arba'indagi har bir hadisning, albatta, roviysi bo'lishi shart.

**Natija.** Ma'lumki, Qur'on matni muqaddas va uning mazmuni ham muqaddas hisoblanadi. Uning ma'nosini noto'g'ri talqin qilish, buzish va o'z shaxsiy maqsadlariga ko'ra o'zgartirish qat'iy ravishda qoralanadi. Shu sababli arba'inda ham bu tartib qoidalarga qat'iy amal qilinadi. Arba'in talqin qilinadi, ammo hech qachon mazmuni o'zgartirilmaydi, buzilmaydi. Alisher Navoiyning "Arba'in" asarida ham avval hadis asl matni, keyin uning roviylari keltirilgan. Undan so'ng Navoiy qit'a shaklida uning mazmunini ma'nosi va ostidan nazariy mazmunini ham bergan.

Diniy - teologik ma'naviyat va ma'rifatga asoslanganlik — mazkur janr xususiyati uning islom ma'naviyati va islom ma'rifati bilan aloqadorligidir. Arba'in din me'yorlarini tushuntiribgina qolmay, ya'ni namozni qanday o'qish kerak, xajga qanday borish kerak kabi masalalarga bag'ishlanibgina qolmay, u musulmon kishisining ma'naviyatini boyitish va uni ma'rifatli qilish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimini tushuntirib beradi.

Alisher Navoiy "Arba'in" asarida quyidagi hadisni shunday izohlaydi:

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qilindi:

"Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: Kishiga har bir eshitgan narsasini gapirishining o'zi gunoh o'laroq yetarlidir",- dedilar.

Qit'a:

Bu yozuq bas kishigakim, eldin

Har ne so‘z kim eshitti, fosh etti.

Tog‘ eshitganni der, gunohidan

Go‘yiyo Tengri oni tosh etti.

Ya‘ni odamlardan eshitganki gapini yoyadigan kishiga shuning o‘zi yetarli gunohdir. Tog‘ eshitganini aytadi ya‘ni u har bir ovozni aks-sado qilib qaytaradi. Go‘yo Alloh uni shu gunohi sababli tosh qilib qo‘ygandek.[3.Navoiydan chu topqaylar navoe .93-bet]

An‘anaviylik — Arba‘in nafaqat yozma adabiyot xususiyati, balki folklorning ham xususiyatiga aylangan. Arba‘in shaklida va maqsadida yaratilgan rivoyatlar, hikoyatlar, afsonalar, maqol va matallar buning yorqin dalilidir. Navoiy ham ustoz Jomiy izidan borib, 40 hadisni she‘riy shaklda erkin tarjima qilib, bu an‘anani davom ettiradi.

Tematik yo‘naltirilganlik — har bir asarning mavzu doirasi bo‘lgani kabi arba‘in janrining ham mavzu qirralari mavjud. Mazkur mavzu qirralari islom tafakkuri doirasidagi ijtimoiy - ma‘naviy mavzularga yo‘naltirilgan. Mavzu nuqtai nazardan arba‘in falsafiy, tasavvufiy, adabiy, ijtimoiy - axloqiy, shuningdek manqibiy an‘analarga bo‘linadi.

Kompozitsion ko‘rinish — arba‘in mustaqil janr sifatida o‘z qurilish va struktural xususiyatlariga ega. Ular milliy adabiyot xususiyatlari bilan ya‘ni arab, o‘zbek, fors-tojik adabiyoti va boshqa adabiyotlar an‘analari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Fors-tojik va o‘zbek adabiyotida nasr va nazmning aralashgan tarzida kelishi, ba‘zi she‘riy formalar, to‘rtlik, qit‘a va boshqa shakllarda kelishi mumkin. Arba‘in kompozitsiyasi uchun zarur bo‘lgan shartlardan biri basmala, hamd, na‘t kabilarning uning boshlanishida albatta bo‘lishi zarurligidir.

Misol uchun, Alisher Navoiyning "Arba‘in"i qit‘a janrida yozilgan. Foilotun, mafoilon, faulan vaznida bitilgan. Avval hadisning matni so‘ng uning umumiy mazmunini badiiy uslubda bayon qilgan.

Til va uslub masalalari — badiiy asar tili uning betakrorligini bildiruvchi bosh badiiylik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Muallif tilining o‘ziga xosligi asarning uslub va badiiyligida ko‘rinadi. Chunki, til badiiyligi nutqning go‘zalligi uning nafasati va o‘ziga xos aks ettirish, ta‘sirchanligi bilan bog‘liq.

Masalan, Alisher Navoiyning yuqoridagi qit‘asida ham so‘zlar o‘zgacha uslubda tanlab olinib marjon kabi ipga tizib chiqilgan. Qit‘a a-b-a-b tarzida qofiyalangan. Fosh, tosh so‘zlari o‘zaro qofiyalangan. Tog‘ning aks-sado qaytarishi go‘yo jonlantirilib tashxis san‘atini hosil qilgan.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, arba‘in an‘anasi arab mumtoz adabiyotida paydo bo‘ldi, ajam xalqlari badiiy adabiyotida o‘ziga xos janr sifatida shakllandi. U o‘zida janr xususiyatlarini shakllantirib mumtoz adabiyotimizda o‘ziga xos o‘rin egalladi. Alisher Navoiyning "Arba‘in" asari ham mana shunday adabiyot namunalarimizdan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" yozish an'analari. Monografiya.M.R.Pulatova.T.: 2021
2. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari. Maqola. D.Yusupova.Til adabiyoti jurnali, 2020
3. Navoiydan chu topqaylar navoe./nashrga tayyorlovchilar Hasaxon va Husayxon Yahyo Abdumajidovlar. T.: Hilol nashr, 2023
4. Adabiyotshunoslik lug'ati./ Nashrga tayyorlovchilar. D.Quronov, Z.Mamajonov,M.Sheraliyeva.T.: Akademnashr, 2013.

